

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANIYOZOVA NASIBA RAMATILLAYEVNA

**AUTIZM SINDROMLI BOLALAR VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna

Autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarining psixologik
xususiyatlari.....3

Жуманиёзова Насиба Раматиллаевна

Психологические особенности отношения родителей к ребенку с синдромом
аутизма.....27

Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna

Children with autism syndrome and psychological characteristics of parents'
relations.....54

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANIYOZOVA NASIBA RAMATILLAYEVNA

**AUTIZM SINDROMLI BOLALAR VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida V2021.2.PhD/P285 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Kamoliddin Botirovich,

psixologiya fanlari doktori (DSc) professor

Nurkeldiyeva Dilbar Axmadovna,

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» ____ kuni soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertasiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51)

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__» _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda autizm sindromi qayd qilingan insonlar soni 10 milliondan ortiqni tashkil qilmoqda. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning 2016 yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, autizm spektrining buzilishi 160 nafar boladan 1(bir) nafarida uchragan bo‘lsa, 2022 yilda kelib bu ko‘rsatkich 100 nafar bolaning 1(bir) nafarida uchrayotgani qayd qilingan¹. Dunyo miqyosida ushbu ko‘rsatkichlarga nazar soladigan bo‘lsak, 1995 yilda 1:5000, 2000 yilda 1:2000, 2005 yilda 1:300, 2008 yilda 1:150, 2012 yilda 1:88, 2017 yilda 1:50 2020 yilda 1:30 nisbatda ekanligini ko‘rish mumkin². Bunday toifadagi bolalar sonining oshishi, ular voyaga yetayotgan oilalarda ota-ona-farzand munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatish bilan birga, autist bolaning shaxs xususiyatlari shakllanishi va uning jamiyatga moslashishi jarayonini qiyinlashtirib boradi. Bu borada, autizm tashxisli farzandni tarbiyalayotgan oilaga tibbiy, psixologik, pedagogik, ma‘naviy va ijtimoiy himoya yordamlarini tashkil qilish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida autizm sindromli bolalarga o‘ziga xos tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish, ularni kognitiv, emosional, hulq-atvor buzilishlarini tiklash, ularning ota-onalarini psixologik qo‘llab-quvvatlash, oila va jamiyat munosabatlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik aloqalar namoyon bo‘lishini ilmiy o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, autizm sindromli bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalarning rivojlanishdagi nuqsonlari bor boshqa bolalarning ota-onalariga nisbatan ko‘proq stressni boshdan kechirishi sababli autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlariga yondashuvlarni ilmiy tahlil qilish, ekstensiv, intensiv va proyektiv usullar orqali oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlarini aniqlash, ularga psixologik targ‘ibot-tashviqot, tibbiy, reabilitasion choralarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda psixologik xizmat sohasini rivojlantirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishni yanada yuqori darajalarga olib chiqish, alohida yordamga muhtoj va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida zarur huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratildi: «...mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy va moddiy yordamni kengaytirish, ularni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish...»³ vazifalari ustuvor etib belgilangan. Shu sababli, autizm sindromli bolalarni aniqlash, davolash usullarini tanlash, ularning ota-onalari bilan reabilitasion

¹ Международная статистическая классификация болезней и проблем, связанных со здоровьем. Десятый пересмотр: в 3 т. / под ред. В.К. Овчарова, М.В. Максимовой; пер. с англ. М.В. Максимовой, С.К. Чемякиной, Л.Ю. Сафроновой. –Женева, 1995. – Т.1. – 697 с.

² <https://medicus-curat.ru/statistika-autizma-v-mire/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 01 dekabrda PF-5270 son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni.-Toshkent. <https://lex.uz/docs/3436192>

tadbirlarni erta boshlash samarali natijalar olishga imkon beradi. Ota-ona va bola munosabatlarini shakllantirish, ularga psixologik yordam ko'rsatish choralari tashkil qilish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi. Tadqiqot ota-onalar tomonidan farzandini holatini qabul qilish, emosional zo'riqishni kamaytirish, autist bolalarni ta'lim jarayoni samaradorligi oshirish va ularni jamiyatga integrasiyasini ta'minlash kabi bir qator ijtimoiy muammolarning yechimi uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 01 dekabrda PF-5270 son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2019 yil 07 sentyabrda PQ-4440 son «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860 son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlar, 2020 yil 23 sentyabrda O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida» Qonun va sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish ularni amalga oshirish yo'llari» ustivor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mamlakatimiz psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, M.X.Fayziyeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, K.K.Mamedov, Z.T.Nishonova, L.V.Nazirova, G.A.Qurbonova, N.A.Sog'inov, N.N.Salayeva, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, S.X.Tadjiyeva, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, O'.B.Shamsiyev, A.Sh.Shojalilov, O.R.Shamiyeva va boshqalar tomonidan shaxsning rivojlanish xususiyatlari va oila munosabatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Pedagog olimlardan M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova, U.Yu.Fayziyeva, M.U.Hamidova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova, M.P.Po'latova, V.S.Raxmonova, Sh.T.Shermuhamedova va boshqalar tomonidan autizm spektrida buzilishi bo'lgan va alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I.Arbusov, T.B.Andreyeva, Ye.Ye.Alekseyeva, V.A.Ababkov, O.B.Bogdoshina, Ye.R.Bayenskaya, V.M.Bashina, A.A.Bodolev, L.I.Bojovich, M.Bouen, L.S.Vigotskiy, K.Gilbert, S.S.Galaskaya, L.Ya.Gozman, Ye.S.Grebelskaya, O.V.Gusayeva, D.N.Isayev, S.N.Kashtanova, I.B.Karvasarskaya, M.M.Libling, K.S.Lebedinskaya, I.Yu.Levchenko, S.S.Muxinin, V.N.Myasimiyev, I.I.Mamaychuk,

O.S.Nikolskaya, L.S.Pechnikova, T.N.Piters, P.Ye.Suxareva, Ye.O.Smirnova, N.V.Simashkova, V.Satir, V.V.Tkachyova, A.Ya.Varga, L.B.Shnayder, T.N.Visotina, L.I.Vasserman, A.I.Zaxarov, E.G.Eydemiller va boshqalarning ilmiy izlanishlarida autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalar turlari va ularning rivojlanishidagi tibbiy-psixologik muammolari, autizm bola va ota-ona munosabatlari tizimi, reabilitasion tadbirlar ahamiyati va oilaviy psixoterapevtik yordam ko'rsatishning samaradorligi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan G.Asperger, F.Happe, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron-Cohen, M.M.Bristol, L.Eyzenbergom, R.R.Fewell, C.Gillberg, K.Gilbert, S.Harris, B.Hermelin, Dj.M.Itar, L.Kanner, M.E.Lamb, G.Mesibov, D.J.Meyer, D.T.Marsh, E.Schopler va boshqalarning tadqiqotlarida autizm sindromini kelib chiqish sabablari va autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy ishlar tadqiq qilingan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bilan bog'liqligi. Disseptasiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yoshlarning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy muammolarini o'rganish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi: autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarining xususiyatlari asosida bolani qabul qilish darajasini oshirish, emotsional zo'riqishlar profilaktikasi va korreksiyasiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ota-onalik roli va ustanovkalarining namoyon bo'lishi va ta'sirini ilmiy tadqiq etish;

autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarida namoyon bo'ladigan differensial farqlarni, xavotirlanish, agressivlik, aybdorlik xislari darajasini tadqiq qilish, ota-onalarning farzandiga emosional yondashuvdagi ustuvor pozitsiyalarni o'rganish va tavsiflash;

ota-ona tomonidan bolaning individual holatini qabul qilishi uchun psixoemosional holatga kognitiv, emosional va xulq atvor sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir ko'rsatish, ota-onalarning koping strategiyalarini shakllantirish va oilaning psixoterapevtik imkoniyatlarini kuchaytirishga erishish mumkinligini asoslash;

autizm sindromli bolalarga kompleks psixologik xizmat ko'rsatish tizimini "ota-onalar maktabi"ni kiritish asosida takomillashtirish, va bolaning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash uchun ota-onaning kognitiv, emosional, xulqiy sohalariga ta'sir etish orqali bolani emosional qabul qilish, u bilan hamkorlik qilish, kabi hislarini differensiasiya qilishni rivojlantirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida ota-onalarning autizm bolasiga munosabat xususiyatlari tanlangan bo'lib, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati inklyuziv ta'lim markaziga jalb qilingan autizm sindromli bolalar ota-onalari 136 nafar, farzandi sog'lom bo'lgan

bolalarning ota-onalari 136 nafar, jami 272 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlari, ularga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodi, shuningdek, E.S.Sheffer va R.K.Bellning «Ota-onalik ustanovkalari va munosabatlarini aniqlash» so'rovnomasi, A.Ya.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-onalarning bolaga munosabati» so'rovnomasi, Ch.D.Spilberger va Yu.L.Xaninning «Vaziyatli va shaxsiy xavotirlanish darajasini aniqlash» so'rovnomasi, E.Xaymning «Shaxsiy koping strategiya diagnostikasi» testi, Lemura-Tesye-Fillionaning «Psixologik stress shkalasi PSM-25» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Spirman mezoni, Mann Uitni va Styudentning t-mezonini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ifodalangan:

autizm sindromli bolalarning ota-onalari bilan munosabatlarini barqaror ifodalashida farzandini tushunish, idrok qilishning ona siymosini ustunligi, haddan ortiq g'amxo'rliqi, verbalizasiya, onaning oilaga qaram ekanligi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning ona rolga fidoyilik kontekstida namoyon bo'lishi sababli "ota-onalik ustanovkalari"ning intensiv ta'sirga ega ekanligi dalillangan;

«ota-ona va autizm bola» munosabatlarini differensial namoyon bo'lishida bola bilan muloqotda xavotirlanishning, agressivlik, aybdorlik hissining yuqoriligi farzandga emosional integral yondashuvning ikki qutbli ifodalashini kuchaytirganligi tufayli "emosional rad etish", "gipersosializasiya", "kichik omadsiz" pozisiyaning ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan;

ota-onaning psixoemosional (stress va xavotirlanish) holatiga korreksion-adaptiv ta'sir etish natijasida ularning kognitiv, emosional va xulq-atvor sohasiga ta'sir ko'rsatish bola bilan simbiotik munosabatda bo'lish, ota-onalarning koping strategiyalarini shakllantirish va oilaning psixoterapevtik imkoniyatlaridan foydalanish darajasini kuchaytirganligi tufayli bolaning individual holatini qabul qilishga erishish mumkinligi asoslangan;

autizm sindromli bolalarning jamiyatga integrasiyasini ta'minlashda ota-onaning kognitiv, emosional, xulqiy sohalariga ta'sir etish orqali bolani emosional qabul qilish, farzandini qabul qilish, u bilan hamkorlik qilish, jamiyatdagi statusini baholash kabi hislarini differensiasiya qilishni rivojlantirish muhimligi tufayli "psixolog-ota-ona-defektolog" kompleks psixologik xizmat ko'rsatish tizimi "ota-onalar maktabi"ni kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublika miqyosida autizm sindromli bolalarning ota-onalariga psixologik yordam ko'rsatish, bola va ota-onalar munosabatlarini shakllanishini o'rganishga doir metodika va so'rovnomalar ishlab chiqilgan va amaliyotga qo'llanilgan;

veb texnologiyalarga asoslangan autizm sindromli bola va ota-ona munosabatlarini aniqlash elektron so'rovnoma dasturi rasmiy ro'yxatdan o'tkazilib, amaliyotga joriy etishga oid № DGU 25369 raqamli guvohnoma olingan;

autizm sindromli bolalar ota-onalarining vaziyatli va shaxsiy xavotirlik darajasini aniqlash, emosional zo‘riqlashlarini yengillashtirish, koping strategiyalari diagnostika qilinib, «Autizm bola va ota-ona munosabatlarining psixodiagnostikasi» nomli uslubiy qo‘llanmaga kiritilgan va nashr qilingan;

autizm sindromli bolalarning ota-onalariga psixologik xizmat ko‘rsatishga doir psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan va uning psixologik modeli amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ob‘yektining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirish va treninglarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlagan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida qayta tahlil qilinganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo‘nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati autizm sindromli bolalar ota-onalarining farzandiga munosabati, stress va xavotirlanish darajalari, koping strategiyalarining turi, ota-onalik ustunovkalarining shakllanganligiga e‘tibor qaratgan holda munosabatlarning ijtimoiy ahamiyatini va munosabatlarning psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ota-ona va bola munosabatlariga ta‘sir qilishning psixologik modeli mazmun mohiyatini ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, qo‘lga kiritilgan natijalar oliy ta‘lim muassasalarida «Maxsus psixologiya», «Psixologik xizmat», «Umumiy psixodiagnostika», «Psixologik maslahat» fanlarini o‘qitilishini mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan psixokorreksion dasturdan amaliyotchi psixologlar, defektologlar alohida yordamga muhtoj bolalar ota-onalari bilan ishlashda, maxsus psixologlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda samarali foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi: Autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarining psixologik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

autizm sindromli bolalarning ota-onalari bilan munosabatlarini barqaror ifodalanishida farzandini tushunish, idrok qilishning ona siymosini ustunligi, haddan ortiq g‘amxo‘rliqi, verbalizasiya, onaning oilaga qaram ekanligi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ona rolga fidoyilik kontekstida namoyon bo‘lishi sababli «ota-onalik ustanovkalari»ning intensiv ta‘sirga ega ekanligi isbotlanganligiga oid oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023 yil 16 iyundagi RM-21-sonli buyrug‘i bilan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv ilmiy markazining 2023 yil 22 iyundagi RM-21-m-son ma‘lumotnomasi). Natijada autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarini psixodiagnostik metodikalar yordamida barqaror ifodalanadigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

«ota-ona va autizm bola» munosabatlarini differensial namoyon bo'lishida bola bilan muloqatda xavotirlanishning, agressivlik, aybdorlik hissining yuqoriligi farzandga emosional integral yondashuvning ikki qutbli ifodalanishini kuchaytirganligi tufayli «emosional rad etish», «gipersosiolizasiya», «kichik omadsiz» pozitsiyasining ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 16 iyundagi RM-21-sonli buyrug'i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv ilmiy markazining 2023 yil 22 iyundagi RM-21-m-son ma'lumotnomasi). Natijada ota-ona tomonidan bolaning individual holatini qabul qilish uchun psixoemosional holatga kognitiv, emosional va hulq-atvor sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir ko'rsatish imkoniyati aniqlangan;

ota-onaning psixoemosional (stress va xavotirlanish) holatiga korreksion-adaptiv ta'sir etish natijasida ularning kognitiv, emosional va xulq-atvor sohasiga ta'sir ko'rsatish bola bilan simbiotik munosabatda bo'lish, ota-onalarning koping strategiyalarini shakllantirish va oilaning psixoterapevtik imkoniyatlaridan foydalanish darajasini kuchaytirganligi tufayli bolaning individual holatini qabul qilishga erishish mumkinligi asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 16 iyundagi RM-21-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv ilmiy markazining 2023 yil 22 iyundagi RM-21-m-son ma'lumotnomasi). Natijada autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarida namoyon bo'ladigan differensial farqlarni aniqlash sharoit yaratilgan;

autizm sindromli bolalarning jamiyatga integrasiyasini ta'minlashda ota-onaning kognitiv, emosional, xulqiy sohalariga ta'sir etish orqali bolani emosional qabul qilish, farzandini qabul qilish u bilan hamkorlik qilish, jamiyatdagi statusini baholash kabi hislarini differensiasiya qilishni rivojlantirish muhimligi tufayli «psixolog-ota-ona-defektolog» kompleks psixologik xizmat ko'rsatish tizimi «ota-onalar maktabi»ni kiritish asosida takomillashtirilgan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 16 iyundagi RM-21-sonli buyrug'i bilan «Psixologik xizmat» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv ilmiy markazining 2023 yil 22 iyundagi RM-21-m-son ma'lumotnomasi). Natijada autizm sindromli bolalarga kompleks psixologik xizmat ko'rsatish tizimini «ota-onalar maktabi»ni kiritish asosida takomillashtirish samaradorligi ishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta halqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot asosiy natijalari bo'yicha 7 ta ilmiy maqola, 6 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'yekti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarini o'rganishning nazariy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida oila munosabatlari masalalarini qadimgi davr va sharq mutafakkirlari g'oyalarida aks ettirilishi, autizm muammosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilganlik holati, bola va ota-ona munosabatini psixologik o'ziga xosliklari nazariy tahlil qilingan. Bizga ma'lumki, irsiy kasalliklar, markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari, aqliy rivojlanish buzilishlari orasida autizm spektirining buzilishi alohida o'rin tutadi. Autizm (grekcha-autos-o'zi) odamovilik, muloqatga ehtiyojni yo'qligi, o'zining ichki olamini atrofida gildardan afzal ko'rishda namoyon bo'ladigan psixika holatidir. Autizm bilan bog'liq masalalar mamlakatimizda nisbatan kam o'rganilgan bo'lib, asosan tibbiyot, defektologiya va pedagogik olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tadqiqotimizda farzandiga autizm tashxisi qo'yilgan ota-onalarning bolasiga bo'lgan munosabatini tadqiq qilinishi bir qator ijtimoiy muammolarni yechimi uchun imkon beradi. Ota-onalar tomonidan farzandini holatini to'g'ri qabul qilish, stress va xavotirlanishni kamaytirish orqali autizm sindromli bolalarni jamiyatga integrasiyasini ta'minlashga erishish mumkin. Shaxs kamolotida dastlabki ijtimoiy institut oila hisoblanar ekan, bu yacheykani sog'lomlashtirish, uning psixoterapevtik imkoniyatlaridan foydalanish orqali autizm bolani individual xususiyatlarini rivojlantirish zarurati mavjud. Oilada nogiron farzandni tug'ilishi oilaning boshqa a'zolari, jumladan er-xotin munosabatlariga ham salbiy ta'sir qilishi kuzatilgan. Shu sababli, ota-onalarning ushbu sindrom haqidagi bilimlarini oshirish, bolaning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma'lumki, dastlab oila muammolari qadimgi yunon faylasuflaridan Plutarx, Gerodot, Platon va Aristotel asarlarida o'rganilgan bo'lib, ular oila va davlat munosabatlari, jamiyat taraqqiyotida oilaning o'rni bo'yicha o'z qarashlarini bildirganlar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da oila odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari xususidagi fikrlar keltirilgan. Islom dinida ham oila muqaddas ekanligi, oilada er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyalashning o'ziga xos tomonlari bo'yicha fikrlar berilgan. Sharq allomalaridan Abu Nasr Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asari orqali inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, ahloqi, dinga munosabati haqidagi fikrlarni ilgari surgan. Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Abu Ali ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» asarida oilaviy munosabatlarga alohida urg'u berib, oilada ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi, bilimli, dinga ishonishi, sharm- hayoli,

jasur, eriga itoat qiluvchi, to'g'riso'z, kamtar, farosatli, o'z sha'niga dog' tushirmaydigan, xushmuomalali bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Xorij olimlaridan I.Ya.Baxovena, D.F.Mak-Lennana, E.Dyurkgeym, Ch.Darvin, F.Le.Ple, Z.Freyd, E.Fromm, R.A.Shpis, V. Satirning ilmiy tadqiqotlarida oila va oilaviy munosabatlar ilmiy tadqiq etilgan. Jumladan ilmiy yondashuvlarda ko'ra, L.B.Shneyder shaxsning shakllanishida oilaning roli muhim ekanligini ta'kidlagan xolda, oila va oilaviy munosabatlar nazariyasining umumiy masalalari, oiladagi o'zaro munosabatlar, nikoh muammolari, ota-ona va farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan.


O'zbek psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, M.X.Fayziyeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, Z.T.Nishonova, L.V.Nazirova, G.A.Qurbonova, N.A.Sog'inov, N.N.Salayeva, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, S.X.Tadjiyeva, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, O'.B.Shamsiyev, A.Sh.Shojalilov, O.R.Shamiyevalar ilmiy tadqiqotlarida oiladagi o'zaro munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlardan M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova, U.Yu.Fayziyeva, M.U.Hamidova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh. Nurmuhamedova, M.P.Po'latova, V.S. Raxmonova, Sh.T.Shermuhamedovalar tomonidan autizm spektrida buzilishi bo'lgan va alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertasiyaning «**Autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarini empirik o'rganish natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida psixologik tadqiqotlarning metodologik asoslari, autizm bolalar va ota-onalar munosabatlarini psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish psixodiagnostikasi, metod va metodikalar tavsifi keltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosida munosabatlar nazariyasi (V.N.Myasimiyev), stress konsepsiyasi (G.Selye), psixoanalitik yondashuv (Z.Freyd, A.Freyd), oilaviy tizimlar nazariyasi (M.Bouen), anomal rivojlanish konsepsiyasi (L.S.Vigotskiy), oilaga tizimli yondashuv (S.Minuxin, V.Satir), rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaga psixologik yordam g'oyalari (I.Yu.Levchenko, V.V.Tkacheva), geshtalt yondashuv (F.Perlz) ekzistensial yondashuv (V.Frankl) g'oyalari tashkil qilgan.

Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, E.S. Sheffer va R.K. Bellning «Ota-onalik ustanovkalari va munosabatlarini aniqlash» so'rovnomasi, A.Ya.Varga va V.V.Stolinning «Ota-onalarning bolaga munosabati» test so'rovnomasi, Ch.D.Spilberger va Yu.L.Xaninning «Vaziyatli va shaxsiy xavotirlanish darajasini aniqlash» so'rovnomasi, E.Xaymning «Shaxsiy koping strategiya diagnostikasi», Lemura-Tesye-Fillionaning «Psixologik stress shkalasi PSM-25» test so'rovnomasi, olingan empirik natijalarning ishonchlilik darajasini tasdiqlashda matematik-statistika metodlaridan Spirman mezoni, Mann Uitni va Styudent-t mezonlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlaridan olingan natijalar asosida ota-onalarning ma'lumoti, autizm bolaning oilada nechanchi farzand ekanligi,

bolalarning davrlar bo'yicha yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlar, autizm tashxis turlari bo'yicha tahlillar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.



1-rasm. Tadqiqot ob'yektlari haqida umumiy ma'lumotlar.


Yuqoridagi diagrammaga asosan, ota-onalarning 68 nafari erkak (50%), 68 nafar ayol (50%), 60 nafari (44%) oliy, 76 nafari (56%) o'rta ma'lumotli ekanligi aniqlandi. Xususan tadqiqotda bolalarning jins bo'yicha tafovutlariga ko'ra o'g'il bolalar 51 nafar bo'lib, (75%)ni, qiz bolalar 17 nafar bo'lib, (25%)ni tashkil qildi. Xalqaro kasalliklar klassifikasiyasining 10- qayta ko'rilishi bo'yicha, autizm sindromi F-84 kodi bo'yicha belgilanadi. Shunga asosan autizm tashxisi qo'yilgan bolalar 2 turga ajratildi: RAS 51 nafar (75%), sindrom Retta 17 nafar (25%) ni tashkil qildi. Farzandlar soni bo'yicha autizm sindromli bolasi 1-farzand bo'lgan ota-onalar (72%), 2-farzandi autizm ota-onalar (20,5%), 3-farzandi autizm ota-onalar (3%), 4 –farzandi autizm ota-onalar (4,4%) ni tashkil qildi. Autizm sindromli bolalarning yosh davrlari bo'yicha ajratishlarga ko'ra, ilk bolalik davridagi autizm bolalar 14 nafarni (20,5%), maktabgacha yosh davridagi autizm bolalar 39 nafarni (57,3%), maktab yoshi davridagi autizm bolalar 15 nafarni (22%) tashkil qilganligi aniqlandi.

E.S. Sheffer va R.K. Bellning «Ota-onalik ustanovkalari va munosabatlarini aniqlash» so'rovnomasi tanlandi. PARI (Parental Attitude Research Instrument — RARI) metodikasi ota-onalar munosabatini o'rganishda autizm va sog'lom bolalarning ota-ona munosabatlari tahlil qilindi.

Ota-onalar ustanovkalari va munosabatlari aniqlash metodikasining shkalalari tahlil qilinganda, autizm sindromli va sog'lom bolalar ota-onalari o'rtasida «ishonch darajasidagi farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. «Verbalizasiya» ($U=2254$; $r<0,001$), «Haddan tashqari g'amxo'rlik» ($U=3781$; $r<0,001$), «Onaning oilaga qaram ekanligi» ($U=7813$; $r<0,01$), «Bola irodasini (xohish istagini bosish)», ($U=5944,5$; $r<0,001$), «Bolaga ziyon yetkazishdan qo'rqish» ($U=4188$; $r<0,001$),

«Oiladagi nizolar» ($U=3243,5$; $r<0,001$), «Asabiylashish» ($U=3710$; $r<0,001$). «Haddan tashqari qattiqqo‘llik»

($U=1119,5$; $r<0,001$), «Agressivlikni bosish», ($U=6571$; $r<0,001$), «Konfliktidan qochish» ($U=306,5$; $r<0,01$), «Erning befarqligi» ($U=901$; $r<0,01$). «Libidoni chegaralash» ($U=185,5$; $r<0,001$), «Onaning ustunligi» ($U=5987,5$; $r<0,001$), «Munosabatlarning tengligi» ($U=4067$; $r<0,001$). «Onaning mustaqil emasligi» ($U=5725$; $r<0,001$) shkalalari bo‘yicha ishonch darajasida tafovutlar kuzatildi.




2-rasm. «Ota-onalar ustanovkalari va munosabatlari aniqlash metodika» si bo‘yicha tafovutlar tahlili

Yuqoridagi diagrammaga ko‘ra, farzandi sog‘lom bo‘lgan ota-onalarda «verbalizatsiya» shkalasi bo‘yicha tafovutlar ustunligi ma‘lum bo‘ldi. Bunga sabab autizm sindromli bolalarda nutq muammolarining mavjudligi ularning ota-onalari bilan munosabatlarida qiyinchiliklarning mavjudligidir. Autizm sindromli bolalarning ota-onalari o‘z farzandlariga nisbatan «haddan tashqari g‘amxo‘rlik» qilishlari namoyon bo‘lganini kuzatdik. Sababi ular farzandlarini kasal deb qabul qilib, hayot qiyinchiliklaridan asrash, og‘ir mehnatga jalb qilmaslik, qiyin vaziyatlarda qo‘llab quvvatlash zarurati, bolaga imkoniyatidan tashqari ishlarni buyurmaslikka xarakat qilishadi. «Bola irodasini (xohish istagini bosish)» shkalasi bo‘yicha natijalarning ishonch darajasidagi farqlar mavjud. Bunga ko‘ra, autizm sindromli bolaning ota-onalari bolaning xohish irodasini ko‘proq boshqarishlari, ularning irodaviy imkoniyatlaridan foydalanishlariga yo‘l qo‘ymasliklari namoyon bo‘lgan. «Bolaga ziyon yetkazishdan qo‘rqish» shkalasidagi tafovutlarga ko‘ra, autizm bolaning doimiy yordamga muhtoj ekanligi, ularni mustaqil biror bir faoliyatga kirisha olmasliklari ota-onalarida xavotirlanishni oshishiga sabab bo‘lar ekan. «Oiladagi nizolar» shkalasi natijalar tahliliga ko‘ra, autizm bolaning oilasida nizolar mavjud bo‘lib, bular sog‘lom bolalar oilasidagi nizolarga nisbatan ustun ekanligi kuzatildi. Autizm sindromli bolaning tug‘ilishi oila tizimiga ta‘sir qilishini inobatga olsak, munosabatlarda doimiy konfliktlar kuzatiladi. Er-xotinning o‘z majburiyatlarini yaxshi anglamasliklari, ota-onalik ustanovkalarini to‘g‘ri shakllanmaganligi sababli ham nizolar yuzaga kelar ekan. «Asabiylashish» shkalasi natijalariga ko‘ra,

asabiylashish, jahldorlik autizm bolaning ota-onalarida yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ular farzandlarini tarbiyalashda qattiqqo‘llik qilish kerak deb hisoblashadi, sababi farzandlarining kelajakda o‘z imkoniyatlaridan foydalana olishmaydi deb hisoblashadi. «Haddan tashqari qattiqqo‘llik» shkalasining natijalar tahliliga ko‘ra, sog‘lom bolaning ota-onalariga nisbatan, autizm bolaning ota-onalarida qattiqqo‘llik yuqori ekanligi kuzatildi. Ushbu qattiqqo‘llik autizm sindromli bolalarni tarbiyalashdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liqdir. «Agressivlikni bosish» shkalasi bo‘yicha autizm bolaning ota-onalarida o‘z agressiyasini bosish ustun ekanligini ko‘rish mumkin. Autizm bolada giperaktiv xatti-xarakterlar, atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatishdagi qiyinchiliklar, uyquning me‘yorida bo‘lmasligi va ovqatlanishdagi muammolar ota-ona munosabatlarida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. «Bola faolligini rivojlantirish» shkalasi bo‘yicha ham ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. Olingan natijalarga ko‘ra sog‘lom bolalarning ota-onalarida o‘z farzandini faol rivojlantirish istagi ustun ekanligi, farzandlaridan muvaffaqiyatli ishlarni talab qilishlari, bola bo‘sh vaqtlarini besamar sarflamasliklari kerak deb hisoblashlari namoyon bo‘ldi. Autizm bolaning imkoniyatlari kamligi sababli ularning ota-onalarida bu ko‘rsatkich past darajada kuzatildi. «Munosabatlarning tengligi» shkalasi natijalarga ko‘ra, sog‘lom bolaning ota-onalarida bu ko‘rsatkich ustun ekanligi, farzandlariga ko‘proq vaqt ajratib ular bilan uy yumushlari, turli o‘yinlar faoliyati orqali e‘tibor berishlari kuzatildi. Autizm bolaning o‘ziga xos xususiyati sababli, ular boshqalarning (xatto ota-onalari) ham o‘z dunyosiga aralashishlarini yoqtirmasliklari sababli, munosabatlarda past ko‘rsatkich namoyon bo‘lganligini kuzatdik.

Ota-onalarning bolaga munosabati metodikasining tahlil natijalariga ko‘ra, ishonch darajasidagi tafovutlarning mavjud ekanligi kuzatildi. «Qabul qilish-ro‘yxush bermaslik» ($U=1022,5$; $r<0,001$), «hulqning ijtimoiy istalgan shakli» ($U=72,26$; $r<0,01$), «simbioz» ($U=48,09$; $r<0,001$), «gipersosiolizasiya» ($U=6295$; $r<0,001$), «kichik omadsiz» ($U=136,5$; $r<0,001$) shkalalari bo‘yicha tafovutlar mavjudligi kuzatildi.




3-rasm. «Ota-onalarning bolaga munosabati» test so‘rovnomasi natijalari

Yuqoridagi diagrammani tahliliga ko'ra, «Qabul qilish-ro'yxush bermaslik» shkalasi natijalarga ko'ra, sog'lom bolalarning ota-onalarida bu ko'rsatkich yuqori ekanligi namoyon bo'ldi. Farzandi sog'lom ota-onalar bolaga nisbatan ijobiy hissiy munosabatda, bolaning individualligini hurmat qiladi, qiziqishlari va intilishlarini ma'qullaydi. Autizm bolaning ota-onalari farzandini biror narsaga o'rgana olmaydigan, omadsiz deb idrok etadi. Ularga farzandlari aqli zaifligi, qobiliyatsizligidan, yomon odatlari tufayli hayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydigandek tuyuladi. Bunday ota-onalar ko'pincha bolasidan ranjiydi, norozi bo'ladi. «Hulqning ijtimoiy istalgan shakli» shkalasi natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu shkala bo'yicha ham sog'lom bolalarning ota-onalari yuqori ko'rsatkichda, unga ko'ra, ota-onalar farzandining ijodiy va aqliy qobiliyatlarini yuqori qadrlaydi, u bilan faxrlanadi. Ular bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini rag'batlantiradi. U bilan teng bo'lishga intiladi. Ota-ona bolaga ishonadi, bolasi bilan g'ururlanadi va munozarali masalalarda uning fikrini ma'qullashga intiladi. Autizm bola ota-onalarida bu ko'rsatkichning past daraja ekanligini inobatga olsak, bu autizm bolaning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, bolaning kasal ekanligi bilan izohlanadi. «Simbioz» shkalasi natijalar tahliliga ko'ra, bu shkalada sog'lom bolalar ota-onalarida yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu shkala bola bilan bo'ladigan muomalada shaxslararo oraliqni (masofani) aks ettiradi. Ota-onalar bolasi bilan simbiotik munosabatda bo'lishga intiladi deb hisoblash mumkin. Bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishga, uni hayot qiyinchiliklari va ko'ngilsizliklaridan saqlashga intiladi. Autizm bolaning ota-onalarida bu ko'rsatkichning past chiqishi, bolaning o'z olamiga boshqa insonlarni kirishini istamasligi, muloqat qilish qobiliyatini pastligi sabab bo'ladi. «Gipersosiolizasiya» shkalasi tahliliga ko'ra, autizm bola ota-onalarida yuqori ko'rsatkich kuzatildi. Bu shkala bola xulq-atvorini nazorat qilish shakli va yo'nalishini aks ettiradi. Bunga ko'ra, ota-onalar farzandidan so'zsiz bo'ysunishni va intizomni talab qiladi. U hamma narsada o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi. Uning fikri o'yi, nuqtai nazarini tushuna olmaydi. Bola o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilmoqchi bo'lsa, qattiq jazolanadi. Ular farzandining ijtimoiy yutuqlarini, uning individual xususiyatlari, fikr o'ylari, odati, hissiyotlarini sinchiklab kuzatib boradi.

«Kichik omadsiz» shkalasi bo'yicha natijalarda autizm bolaning ota-onalarida yuqori darajadagi farq namoyon bo'lganligi kuzatildi. Bu shkalaning mohiyatiga ko'ra, ota-onalar tomonidan bolani tushunish va idrok etish, bolani infantillashtirish, unga nisbatan shaxsiy va ijtimoiy nochor, yoshiga nisbatan kichik deb idrok qilinadi. Bolaning hislari, fikrlari, qiziqish, ishtiyoqlari jiddiy emasdek tuyuladi. Ota-onalar farzandini be'mani ta'sirlarga beriluvchan, omadsiz, moslasha olmaydi deb hisoblashadi. O'z farzandiga ishonmaydi. Shuning uchun bolani qiyinchiliklardan ehtiyot qilishga, uning xatti harakatlarini qattiq nazorat qilib turishga intiladi.

Xavotirlanish darajasini aniqlash so'rovnoma natijalariga ko'ra, «Reaktiv xavotirlanish» shkalasi ($U=3927,5; r<0,001$) va «Shaxsiy xavotirlanish» shkalasi ($U=6010; r<0,001$) bo'yicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatilgan.




4-rasm. «Xavotirlanish darajasini aniqlash» test so‘rovnomasi bo‘yicha tafovutlar tahlili

Yuqoridagi diagrammaga ko‘ra, «Reaktiv xavotirlanish» shkalasi natijalarining tahliliga ko‘ra, autizm bolalarning ota-onalarida sog‘lom bolaning ota-onalariga nisbatan reaktiv xavotirlanish yuqori ekanligi namoyon bo‘ldi. Ota-onalarda vaziyatli xavotirlanish bu atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan munosabatidan kelib chiqadi. «Shaxsiy xavotirlanish» shkalasi bo‘yicha natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, shaxsiy xavotirlanish ham autizm bolalarning ota-onalarida ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shaxsiy xavotirlik bu insonning individualligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Dissertasiyaning «**Autizm sindromli bolalar ota-onasini psixologik-qo‘llab-quvvatlashning amaliy imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarini psixologik xususiyatlarining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi, oilasiga psixologik yordam berishni tashkillashtirish, ota-onalardagi stress va xavotirlanish darajasini kamaytirishga erishish orqali bolaning jamiyatga integrasiyasini ta‘minlashdan iborat. Psixologik tadqiqotlarning predmeti sifatida milliy muhitda o‘rganilgan, shuningdek autizm bola va ota-ona munosabatlarini o‘rganishga moslashtirilgan korreksion trening mashg‘ulotlari orqali samarali ta‘sir qilish ilmiy jihatdan ochib berishga xarakat qilingan. «Ota-onalar maktabi» psixokorreksion dasturi maqsadi ota-onalarning autizm bolasining holatini qabul qilish, stress va xavotirlanishni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularda kechayotgan salbiy emosional holatlarni bartaraf etish orqali bolaning jamiyatga moslashishiga ko‘maklashishni nazarda tutadi.

Mazkur dastur eksperimental guruhda 15 nafar autizm bolaning ota-onalari bo‘lib, ular 30 nafarni tashkil qiladi. Psixokorreksion dastur 8 ta mashg‘ulotdan iborat bo‘lib har bir mashg‘ulot 2,5 soatga mo‘jallangan. «Ota-onalar maktabi» nomli maxsus dastur psixoterapevtik yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi, shuningdek ota-onalarning bolaning holatini qabul qilish va emosional zo‘riqishlarini kamaytirishni inobatga olgan holda, mashg‘ulotlar davomida respondentlarning o‘z hissiy kechinmalari erkin va to‘liq, ob‘yektiv tarzda namoyon qilishlariga e‘tibor qaratildi.



5-rasm. «Ota-onalar maktabi» nomli dasturning psixokorreksion modeli

Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, «Ota-onalar maktabi» dasturi tizimlilik, yaxlitlik, integrativlik, uzviylik va bir-birini to'ldiruvchi tamoyillarga asosan tuzilganligi sababli, unga mos psixologik yordam tizimini aks ettiruvchi psixokorreksion model ishlab chiqildi. Ushbu modelda autist bola va ota-ona munosabatlarini ijobiy shakllantirish shu orqali bolaning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash nazarda tutildi. Autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlariga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish orqali, ota-onalardagi stress va xavotirlanishni kamaytirish, bolasining kelajagiga ishonmaslik, bolani autizm bo'lib tug'ilishida o'zini va o'zgalarni ayblash, munosabatlardagi salbiylik, bolani qabul qilishdagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi.

Psixokorreksion modelning birinchi sohasi shaxslilik va emosional soha bo'lib, unga ta'sir qilish orqali ota-onalarning o'z "meni", o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashni to'g'ri yo'naltirish, o'z-o'zini boshqarish va muvozanatlashtirish ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Emosional sohaga ta'sir qilish orqali ota-onalardagi stresslarni bartaraf etish, xavotirlanish va agressiyani kamaytirish imkoniyati yuzaga chiqadi. Ota-onalarning shaxslilik va emosional sohasi barqarorlashsa, ularning autist bolalari bilan munosabatlar sohasi ijobiy rivojlanadi. Ota-ona va bola munosabatlari sohasi bilan ishlash natijasida autist bolasini qabul qilish, oilada xamkorlik muhitini yaratish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, shaxslararo munosabatlarda agressiyani kamaytirish mumkin. Oilaning ijtimoiy muhit sosium bilan aloqalarini kengaytirishda mutaxassislarning xamkorligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, shifokorlar, defektologlar, pedagoglar tavsiyalarini olish maqsadga muvofiq keladi. Bundan tashqari reabilitasiya va turli ijtimoiy yordam markazlari bilan aloqa o'rnatishni yo'lga qo'yish samaralidir. Autist farzandli oilalar bilan o'zaro yordam va tajriba almashish maqsadida kontakt o'rnatish muammoning yechimini izlash imkoniyatini yaratadi.

Psixokorreksion dasturni tashkil qilish shakliga ko‘ra individual va guruhiyga ajratildi. Individual ish shaklida axborot berish, konsultasiya, suhbat metodi, amaliy topshiriq berish nazarda tutilib, autizm sindromini kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, rivojlanish xususiyatlari, bolaning resurs va imkoniyatlari, pedagogik-psixologik yordam berish, bolani tarbiyalash va o‘qitishga qaratilgan ma’lumotlar to‘plandi. Autizm bola ota-onalariga muammoning yechimi izlashga ko‘maklashish, psixologik, tarbiyaviy, pedagogik, tibbiy va ijtimoiy yordam berishni tashkillashtirish nazarda tutildi. Muammoning mohiyatini baholash orqali uch tomonlama maslahat modelini yaratildi: «psixolog-ota-ona va autizm bola». Tadqiqotning psixologik-korreksion bosqichi tahlili psixologik korreksiya imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlari o‘zgarganligini qayta aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Quyidagi jadvalda Styudentning t- mezoni asosida autizm sindromli bolalar ota-onalaridan korreksion mashg‘ulotlardan keyin olingan natijalar tahlil qilindi. Tadqiqotning korreksion guruhiga jami 30 ta respondent jalb qilingan bo‘lib, ular bilan olib borilgan trening mashg‘ulotlarining samarasini aniqlash maqsadida qayta so‘rovnomalar o‘tkazildi. Natijalarni tahlilini keltirib o‘tamiz.

1-jadval


«Ota -onalarining bolaga munosabati» test so‘rovnomasi bo‘yicha psixokorreksiyadan keyingi natijalar o‘rtasidagi statistik farq (Styudentning t-mezoni) (n=30)

Ko‘rsatkichlar	M ₁ korreksiyadan oldin	M ₂ korreksiyadan keyin	t-statistik farq ko‘rsatkichi
Qabul qilish-ro‘yxush bermaslik	19,06	21,06	-2,208*
Hulqning ijtimoiy istalgan shakli	2,36	2,76	-2,11*
Simbioz	2,36	7,66	-25,26***
Gipersosializasiya	6,60	6,66	-,494
Kichik omadsiz	7,46	6,73	2,843**

Izoh: *p≤0,10; **p≤0,05; *** p≤0,01.

Tadqiqotning aniqlashtiruvchi va nazorat guruhlarida qo‘llanilgan metodikalardan «Ota-onalarining bolaga munosabati» test so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha, psixokorreksiyadan keyingi natijalar o‘rtasidagi statistik farqlar mavjudligi aniqlandi. «Qabul qilish-ro‘yxush bermaslik» shkalasi (p=-2,208; p≤0,05) ko‘rsatkichlarida ijobiy farqlar aniqlangan. Bolasining holatini qabul qilish ortganligini ko‘rish mumkin. «Hulqning ijtimoiy istalgan shakli» (p=-2,11; p≤0,05) shkalasi bo‘yicha ham ijobiy natija ko‘rsatilgan. Bunga ko‘ra, ota-onalar tomonidan autizm bolasini qo‘llab-quvvatlash oshgani kuzatiladi. Korreksiyadan oldingi

